

**TAFAKKUR BORASIDA PSIXOLOGIK NAZARIYALAR. TAFAKKUR
OPERATSIYALARI.**

Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna
Ibragimova Xurshidaxon Xusanbayevna

Andijon davlat pedagogika insitituti "Pedagogika
psixologiya" kafedrası o'qituvchilari:

Erkinjonova Niginabonu Elyorjon qizi
Valiyeva Gulsanamxon Bahromjon qizi

Aniq fanlar fakulteti Fizika yo'nalishi 101-guruh talabalari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14356958>


Annotatsiya: Ushbu maqolada tafakkur muammosini xorij psixologiyasida keng doirada tadqiq qilinib, atroflicha bilimlar va ma'lumotlar zaxirasi to'planilganligi, hamda maqolada keltirilgan ma'lumotlardan tafakkur tushunchasi turli nuqtai nazarlarda tahlil qilinganligi haqida mulohazalar yuritiladi. Inson tafakkurini ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish mumkin emasligini, tafakkurning usullari nerv tizimida ham, miyyasida ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga, o'ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo'llaydigan ijtimoiy faoliyatlardandir degan mulohazalar yuritiladi. Tafakkur operatsiyalari haqida turli xil munozaralar yuritiladi.

Kalit so'zlaar: Tafakkur tushunchasi, psixik jarayon, tafakkur turlari, reproduktiv, kreativlik, tafakkur operatsiyasi, analiz, sintez, tafakkur shakli, fikrlash, hissiy bilish, tafakkurning individual xususiyatlari.

Аннотация: В данной статье широко исследована проблема мышления в зарубежной психологии, собраны обширные знания и сведения, а также проанализировано понятие мышления с разных позиций на основе информации, представленной в статье. Мышление человека невозможно изучить без других форм общественной жизни, способы мышления находятся не в нервной системе или в мозгу, а в социальном порядке, что приводит к такому восприятию, мышлению и работе в один период, и в другой период. работать по-другому. Считается, что это одно из занятий. Существуют различные споры о действиях мышления.

Ключевые слова: Понятие мышления, психический процесс, типы мышления, репродуктивное, творчество, мыслительная операция, анализ, синтез, форма мышления, мышление, эмоциональное познание, индивидуальные особенности мышления.

Annotation: In this article, the problem of thinking has been widely researched in foreign psychology, extensive knowledge and information has been collected,




and the concept of thinking has been analyzed from different perspectives from the information presented in the article. Human thinking cannot be studied without other forms of social life, the ways of thinking are not in the nervous system or in the brain, but in a social way that leads to such perception, thinking, and work in one period, and in another period to work in a different way. It is considered that it is one of the activities. There are various debates about the operations of thought.

Key words: Concept of thinking, mental process, types of thinking, reproductive, creativity, thinking operation, analysis, synthesis, form of thinking, thinking, emotional cognition, individual characteristics of thinking.

Kirish. Tafakkur inson faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtsida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyalar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu bois dunyoni bilishda sezish, idrok, tasavvur va bevosita tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib uning ikkita yoki uchta muhim xususiysti ta'kidlab o'tiladi xolos. Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismlar va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi. Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta'sir ko'rsatmay ko'pchilik xollarda asboblarni ko'magiga olingan. Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq chuqur va umumlashtirib aks ettirishga, insonni taqin ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so'z yordami bilan ifodalanish muallifning diqqat markazidan chetga qolgan. Tafakkur o'z navbatida tushuncha, xukm, va xulosa



chiqarishni o'z ichiga oladi. Tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Tafakkur borliqni umumlashgan obrazlarida ifodalaydi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq tafakkur predmedlardagi umumiy takrorlanuvchi muhim jihatlarni ajratib ifodalaydi.


Tafakkurning alohida muhim o'ziga xos xususiyatlari – bu uning nutq bilan uzluksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo'lmagan holat, masalan, kar-saqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o'z ifodasini topadi. Biz doim so'zlar orqali fikr yuritamiz. Tafakkur psixik faoliyat sifatida miyanning vazifasi hisoblanadi. Oddiy psixik jarayonlar, masalan, sezgilar uchun asos vazifasini o'taydigan yuqoriroq darajadagi miya jarayonlari tafakkurning fiziologik asosini tashkil etadi. Lekin hozirda tafakkur jarayonini taminlovchi barcha fiziologik tuzilmalarning o'zaro ta'sir etish tartibi va ahamiyati haqida aniq fikr mavjud emas. Tafakkurning psixik faoliyat sifatidagi umumiy xususiyatlarini chizma shaklida keltirish mumkin. Tafakkurning yo'nalishiga qarab nazariy va amaliy turlariga ajratiladi. Hodisalarni izohlashga qaratilgan tafakkur nazariy tafakkur deyiladi. Nazariy tafakkur ayni paytda abstrakt tafakkur hamdir. Nazariy tafakkurda voqelik mavjud bo'lgan umumiy, muhim bog'lanishlar va munosabatlar aks etadi. Amaliy tafakkur tajriba, amaliy harakatlar asosida amalga oshiriladi va aniq vazifalarni bajarishga qaratilgan, nazariy tajriba bilan ish ko'rmasdan tushunchalardan foydalaniladi. Diskursiv tafakkur – kengaytirilgan tafakkur, ichki sezgi kechishining tezligi, aniq ifodalangan bosqichlarning mavjud emasligi, oz darajada aniqlanganligi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, tafakkur turlari bir-birini to'ldiradi.

Xulosa.

Shunday qilib, odamlardagi tafakkurning individual xususiyatlari yuqorida ko'rib chiqilgan aqliy sifatlarda turli uyg'unlikda ifodalanadi. Tafakkur shakllanishi va rivojlanishida bir nechta bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Hozirda mavjud bo'lgan tafakkur taraqqiyotining bosqichlarga bo'linishiga nisbatan yondashuvlarning ko'pchiligida inson tafakkuri rivojlanishining dastlabki bosqichi umumlashtirish bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Umarov.B.M,Norbekova.B.Sh-``Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi``- Toshkent-2023,163-bet;
- 2.Gippenreyter yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - m., 1996;
- 3.Karimova v. M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. - t., 2000



- 4.Karimova v. M., akramova f. Psixologiya. Ma'ruzalar matni - t., 2000;
- 5.Pavlova, N. N. (2019). Pedagogik psixologiya: nazariy asoslari va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
- 6.Qodirova, S. A. (2021). Ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlar. Tashkent: Fan va texnologiya.
- 7.Gafurova, M. R. (2020). Oila va maktab: hamkorlik va psixologik qo'llab-quvvatlash. Toshkent: O'zbekiston ta'lim nashrlari.
- 8.Isroilova, L. I. (2018). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va psixologiya. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
- 9.Djonova, N. M. (2017). Motivatsiya va diqqatni jamlash: ta'lim jarayonidagi o'rni. Toshkent: O'zbekiston Psixologiya Assotsiatsiyasi.

